# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 26-yanvar, № 20 (8643) Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O'ZBEKISTON – XITOY: SAMARALI MULOQOTLAR, ISTIQBOLLI TASHABBUSLAR – MUSHTARAK MAQSADLAR IFODASI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 23 — 25-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.**









Davlatimiz rahbari 25-yanvar kuni Shenchjen shahrida Guandun muzofoti partiya qo'mitasi kotibi Xuan Kunmin bilan uchrashuv o'tkazdi.

Guandun — Xitoyning eng rivojlangan hududlaridan bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizini shakllantiradi va bu ko'rsatkich bo'yicha yetakchilik qiladi. Muzofot O'zbekiston hududlarining eng yirik iqtisodiy sherigidir.

Uchrashuvda muzofot bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni, eng avvalo, yuqori texnologik tarmoqlarda kengaytirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

Kuni kecha XXR Raisi Si Szinpin bilan sermahsul muzokaralar o'tkazilgani, ular doirasida hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish masalasi qo'llab-quvvatlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, shu jumladan, Guandunning yetakchi kompaniyalari uchun mamlakatimiz hududlarida ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik parklar tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

24-yanvar kuni bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda tashkil etilishi kelishib olingan O'zbekiston va Xitoy hududlari kengashi faoliyatida Guandun muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

Muzofot hududida joylashgan "Huawei", "BYD", "ZTE" va boshqa ilg'or kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirishdan O'zbekiston manfaatdorligi qayd etildi.

Gumanitar aloqalar va ishbilarmonlik almashinuvlarini faollashtirish maqsadida IT ta'lim sohasida hamkorlik qilish va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifining ishbilarmonlik tadbirlari davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Guandun muzofoti partiya qo'mitasi kotibi Xuan Kunmin bilan birgalikda Shenchjen shahrida o'tayotgan qo'shma Investitsiya forumida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil may oyida Xitoyga davlat tashrifi doirasida ham ushbu mamlakat ishbilarmon, moliya va investitsiya doiralarining yetakchi vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazgan edi. O'shanda erishilgan muhim kelishuvlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni yanada kengaytirdi.

Bugungi investitsiya forumi samarali muloqotning davomi bo'lib, ikki mamlakat idoralari va hududlari rahbarlarini, Xitoy yirik biznesining 600 nafardan ziyod vakillarini to'pladi. Xitoyning Milliy neft-gaz korporatsiyasi, Milliy kimyo-injiniring kompaniyasi, Aerokosmik ilmiy-sanoat korporatsiyasi, "China Energy", "Gezhouba Group", "China CAMC Engineering", "Huawei Technologies", "SANY Renewable Energy", "BYD Auto Industry", "Xinjiang Hualing Group", "ZTE", "TBEA", "Universal Energy" kompaniyalari, Xitoy taraqqiyot banki, Davlat taraqqiyot banki, Eksport-import banki shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari forumni ochar ekan, barcha ishtirokchilarni samimiy qutladi va tadbir haqli ravishda Xitoyning innovatsiyalar poytaxti hisoblangan Shenchjen shahrida o'tkazilayotganida o'ziga xos ramziy ma'no mujassam ekanini ta'kidladi.

— Bugun mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli va o'zaro manfaatli munosabatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy hamkorlik aloqalaridan kuch oladi, — dedi Prezident.

Kuni kecha XXR Raisi Si Szinpin bilan samarali muzokaralar o'tkazilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Erishilgan natijalardan biri mamlakatlarimiz biznes vakillari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kelishuvlar bo'ldi.

Qabul qilingan tarixiy hujjat — O'zbekiston — Xitoy munosabatlarini barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga olib chiqadigan davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti ham bunga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal sur'atda o'sib, keng ko'lam kasb etayotganiga alohida e'tibor qaratdi.

Xususan, keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki barobar ko'payib, 2023-yilda rekord ko'rsatkich — 14 milliard dollarga yetdi. Davlatimiz rahbari yaqin yillarda, shu jumladan, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini o'zaro yetkazib berishni kengaytirish, ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha imtiyozli savdoni yo'lga qo'yish to'g'risida hukumatlararo yangi bitim tuzish orqali bu ko'rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish uchun imkoniyat borligini yana bir bor qayd etdi.

Xitoyning O'zbekistonga kiritgan umumiy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollardan oshdi. Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobar ko'paydi.

Davlatimiz rahbari yaqinda Urumchida o'tgan hududlararo forum va sanoat mahsulotlari ko'rgazmasida muhim investitsiya kelishuvlari imzolanganini yuqori baholadi.

O'zbekiston tomoni ushbu ishbilarmonlik platformasiga tizimli tus berish va navbatdagi forumni yurtimizda o'tkazishga tayyorligi bildirildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari doimiy faoliyat yuritadigan ikki mamlakat hududlari kengashini tashkil etish bo'yicha rejalarni olqishladi.

Ma'lumki, yangi O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqori texnologik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzilgan. Shu oydan boshlab "sanoat ipotekasi" ishga tushirilmoqda, bunda yer va ishlab chiqarish maydonlari "tayyor biznes" shaklida investorlarga beriladi.

Yirik banklar, sanoat va infratuzilma obyektlarini xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilishga katta e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Birgalikdagi sa'y-harakatlarni yangi loyiha va tashabbuslarni ilgari surishga safarbar etish muhimligini qayd etib, davlatimiz rahbari kelgusi hamkorlikning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi.

Bular — infratuzilmani rivojlantirish loyihalariga Xitoy moliya institutlari mablag'larini jalb qilishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilgan holda ushbu mamlakat kompaniyalari bilan sheriklikni kengaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, shu jumladan, strategik xomashyoni chuqur qayta ishlashda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini barqaror yuritishda Xitoyning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish hamda yerlarni qayta tiklash va tuzga chidamli o'simliklarni ekish bo'yicha ilmiy yondashuvlarini joriy qilish.

"Yashil" energetikada strategik sheriklikni yanada ilgari surish va Xitoy kompaniyalarining xususiylashtirish dasturida ishtirok etishi ham muhim yo'nalishlar sifatida qayd etildi.

Shu munosabat bilan investitsiya loyihalari portfelini, infratuzilma va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturlarini kengaytirish bo'yicha xitoylik sheriklar bilan kelishuvlarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

**(Davomi 2-betda).**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

# O'ZBEKISTON – XITOY: SAMARALI MULOQOTLAR, ISTIQBOLLI TASHABBUSLAR – MUSHTARAK MAQSADLAR IFODASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shuningdek, tashrif davomida Xitoyning yetakchi banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, Eksport-import banki vakolatxonasini ochish va Ipak yo'li fondi bilan birgalikda yangi Investitsiya platformasini yaratish bo'yicha qabul qilingan qarorlar xitoylik hamkorlarning O'zbekistondagi muvaffaqiyatli faoliyatiga kuchli sur'at bag'ishlashi ta'kidlandi.

— Yana bir yangilik. Har bir xitoylik hamkorga loyihalar boshidan oxirigacha hamrohlik qiluvchi investitsiya menejeri tayinlanadi. Ular kompaniyalaringiz loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishida yangi imkoniyatlar yaratishiga qat'iy ishonamiz, — dedi Prezident.

Guandun muzofoti partiya qo'mitasi kotibi Xuan Kunmin ham forum ishtirokchilariga murojaat qildi. Prezidentimiz olib borayotgan ortga qaytmas islohotlar siyosatini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirib, O'zbekistonda ochilayotgan katta imkoniyatlarni qayd etdi hamda Xitoy biznesini mamlakatimizda o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirishda yanada faolroq ishtirok etishga chaqirdi.

Biznes forumi yakunida energetika, neft-gaz, tog'-kon, elektrotexnika, yengil sanoat, mashinasozlik, infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, transport va logistika sohalarida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hujjatlarning katta to'plami imzolandi.

"Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, har bir loyihaga mas'ul menejerlar biriktiriladi.

Yakunda O'zbekiston Prezidenti ushbu Guandun investitsiya forumini har yili tashkil etish tashabbusini ilgari surib, uning navbatdagi uchrashuvini kelgusi yilda Samarqand shahrida o'tkazishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Shenchjen shahridagi tadbirlar doirasida Ipak yo'li fondi raisi Chju Szyun bilan uchrashuv o'tkazdi.

Fond 2014-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tashabbusi bilan "Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Uchrashuvda sanoat kooperatsiyasi va infratuzilmani rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun fond bilan birgalikda yaratilgan investitsiya platformasi imkoniyatlarini faol ishga solish orqali istiqbolli loyihalarni amalga oshirish borasidagi rejalar ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "SANY" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Syan Venboni qabul qildi.

"SANY" shamol turbinalarini ishlab chiqaruvchi dunyoning yetakchi 10 ta kompaniyasi qatoriga kiradi. Shamol energetikasi qurilmalarini ishlab chiqarish va sotishga, shamol elektr stansiyalarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va boshqarishga ixtisoslashtirilgan.

Uchrashuvda kompaniyaning Qoraqalpog'iston Respublikasida shamol elektr stansiyasini barpo etish, shamol turbinalarining butlovchi qismlarini, qurilish va og'ir yuk texnikasini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish kabi loyihalarni amalga oshirish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga erishilgan kelishuvlar amalga oshirilishini jadallashtirish bo'yicha alohida "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga topshiriq berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shenchjen shahriga tashrifi doirasidagi navbatdagi uchrashuv "CSG" kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Men Chjenpin bilan bo'ldi.

Xitoyning elektr tarmoqlari sohasidagi yetakchi kompaniyalaridan biri "CSG" tarmoqlarni qurish va boshqarishga ixtisoslashtirilgan. Kompaniyaning bozor kapitallashuvi 60 milliard dollarni tashkil etadi.

Uchrashuvda istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Xitoy kompaniyasi ishtirokida loyihalashtirish va injiniring bo'yicha zamonaviy tizimlarni, energetik xavfsizlikni ta'minlash va energiya tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha yuksak standartlarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Davlat tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shenchjen shahrida Xitoyning yetakchi "BYD" kompaniyasi bosh qarorgohi va texnologiyalar markaziga tashrif buyurdi.

Ushbu kompaniya zamonaviy innovatsion avtomobillar va yangi avlod akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarish sohasida global peshqadamdir.

Tashrif chog'ida kompaniya yutuqlariga bag'ishlangan ko'rgazma, avtomobillar va boshqa turdagi texnikalarning ishlab chiqarilayotgan va istiqbolli modellari, kompaniyaning yangi texnologiyalari va ilg'or ishlanmalari namoyishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari kompaniya prezidenti Van Chuanfu bilan birga Jizzax viloyatida yiliga 50 ming dona gibrid va elektr avtomobillarni yig'ish bo'yicha loyihani ishga tushirishga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.

Prezidentimiz yaqin istiqbolda bozordagi talabdan kelib chiqib modellar qatorini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatini yiliga 300 ming donagacha oshirish zarurligini ko'rsatib o'tdi.

Shuningdek, kompaniyaning mamlakatimizda "BYD" elektr avtobuslarini yig'ishni yo'lga qo'yish, ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish va muhandislik-servis markazlarini tashkil etish borasidagi rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Tashrif chog'ida kompaniya O'zbekistonga 10 minginchi avtomobilini yetkazib berganining ramzi sifatida davlatimiz rahbariga "YANGWANG U8" avtomobili hadya qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi yakunlandi.

**O'zA.**

Aks sado

## KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK

*Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekiston g'oyasi asosida olib borilayotgan izchil islohotlar hamda xalqaro miqyosdagi tashabbuslar uning mintaqa va xalqaro hamjamiyatdagi mavqei ortishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, dunyodagi barcha davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish, har bir masalani konstruktiv muloqot va taraflar manfaatlarini hisobga olgan holda hal qilish hamda ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 23 — 25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi misolida ham buni ko'rish mumkin.

Davlatimiz rahbari o'z tashrifini savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida XXR Davlat kengashi Bosh vaziri bilan uchrashuvdan boshlar ekan, bunday muloqotlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishini alohida ta'kidlab o'tdi.

Aytish joizki, o'tgan yilda Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo hamkoriga aylandi. Misol uchun, tovar ayirboshlash hajmi oldingi yillardagiga nisbatan 50 foizga oshib, rekord daraja — 14 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkichni, jumladan, yuqori sifatli sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zaro yetkazib berishni ko'paytirish hisobiga 20 milliard dollarga oshirish uchun yetarli salohiyat mavjud.

Qolaversa, infratuzilmani modernizatsiyalash, sanoat kooperatsiyasini va qishloq xo'jaligida texnologiyalar transferini kengaytirish va "yashil" energetikani rivojlantirish bo'yicha alohida hamkorlik dasturlarini qabul qilish masalalari muhim hisoblanadi.

Prezidentimizning tashrif doirasida parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi bilan muzokaralar o'tkazgani ikki davlat munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganligini anglatadi. Ayni chog'da u ikki tomonlama strategik sheriklikni kengaytirishda yangi bosqich bo'ldi, deyish uchun barcha asos bor. Xitoyning kambag'allikni qisqartirish borasidagi tajribasi ham biz uchun ayni muddaodir.

Uchrashuv chog'ida o'tgan yili O'zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari o'tkazilgani hamda shu kunlarda Pekinda bo'lib o'tayotgan O'zbekiston madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar samarasi tomonlar uchun birdek muhimligi ham alohida urg'ulandi.

Ishbilarmonlik tadbirlari doirasida esa Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti bilan muzokaralar o'tkazilib, bu xalqaro moliyaviy institut bilan strategik sheriklik masalalari ko'rib chiqildi.

Qayd etish kerakki, keyingi yillarda mazkur bank bilan birgalikda energetika, suv ta'minoti, avtomobil va temir yo'llarni rekonstruksiya qilish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida muhim loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida ustuvor yo'nalishlardagi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha 2026-yilgacha mo'ljallangan qo'shma hamkorlik dasturi buning yorqin misolidir.

Bu galgi tashrifning muhim voqealaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning rasmiy delegatsiyalar a'zolari ishtirokidagi oliy darajadagi muzokaralarini keltirish mumkin.

Unda hududlararo almashinuvlar faollashgan bir vaqtda ikki davlatni bog'lash masalasi yuqori o'rinda turishi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida transmintaqaviy transport va tranzit ko'prigining tarkibiy qismi bo'ladigan Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish borasidagi kelishuv muhim qadamdir.

Umuman olganda, Prezidentimizning XXRga amalga oshirgan bu galgi davlat tashrifi o'zaro hamkorlikni turli sohalarda rivojlantirish hamda strategik sheriklik aloqalarimizni yangi bosqichga ko'tarishi bilan yanada ahamiyatlidir.

**Narimon UMAROV,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.**

# O'ZBEKISTON VA XITOY ALOQALARI BARCHA SOHADA MISLI KO'RILMAGAN DARAJAGA KO'TARILDI

*O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga uch kunlik davlat tashrifi juda mazmunli va samarali kechdi. Xitoy yetakchisi Si Szinpin, mamlakat rahbariyati a'zolari, moliya institutlari, fondlar hamda ishbilarmon doiralar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va ularning natijasida erishilgan kelishuvlar, xalqaro ekspertlarning fikricha, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar faollashuvida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi.*

*Tahlilchilarning aytishicha, ushbu jarayon Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasi va xalqaro birlashmalar bilan o'zaro hamkorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*



Dunyo nigohi

**Husrav NOZIRIY,**
**Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) bosh kotibi:**



— Tashrif doirasidagi ikki tomonlama tadbirlarning boy va mazmunli dasturi ikki davlat ko'p qirrali strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va kengaytirishdan manfaatdor ekanidan dalolatdir.

Ayniqsa, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yuqori sur'atlari, shuningdek, rasmiy Pekinning O'zbekiston bilan IHTning asosiy davlati sifatida ko'p tomonlama sheriklikni yanada mustahkamlashdan manfaatdorligi e'tiborga molik. Eslatib o'tamiz, Xitoy Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning asosiy savdo sherigi hisoblanadi.

O'zbekiston Prezidentining Xitoyning yetakchi kompaniyalari va bank-moliya institutlari rahbarlari bilan o'tkazgan uchrashuvlari ikki tomonlama munosabatlarda ulkan salohiyat va ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, o'zaro sarmoyalarni faollashtirish va savdo hajmini oshirish uchun istiqbolli imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Xitoy kompaniyalarining yuqori texnologiyalar, elektrotexnika, sanoat, infratuzilma va energetika sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishdagi ishtiroki O'zbekistonning yanada rivojlanishiga xizmat qilishini ta'kidlamoqchiman.

O'zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi ikki va ko'p tomonlama sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga, uni mamlakatlar va mintaqalar farovonligi yo'lida yangi amaliy tashabbus hamda maqsadlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi.

**Maks SEY,**
**Malayziyaning "Kingsley Strategic Institute" direktori:**



— O'zbekiston — Xitoy munosabatlarining bugungi holati an'anaviy tarzda yuksak ishonch darajasi bilan ajralib turadi. Oliy darajadagi muntazam siyosiy muloqot va mamlakatlar o'rtasida har tomonlama strategik sheriklik darajasiga erishilgani bunga yorqin misoldir.

O'zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifining yakunlari bo'yicha savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika, ilmiy-texnikaviy va mintaqalararo hamkorlik sohalarida mustahkam hujjatlar to'plami imzolangani quvonarlidir.

Xususan, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha moliyaviy vositalarni kengaytirish, Toshkent shahrida Xitoy Eksimbankining Markaziy Osiyo bo'yicha hududiy vakolatxonasini ochish va "Havo Ipak yo'li" loyihasini birgalikda barpo etishga oid kelishuvlar alohida e'tiborga molikdir.

Shubhasiz, tashrif davomida erishilgan kelishuvlarning hayotga tatbiq etilishi ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida iqtisodiy o'sishni yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Stanislav PRITCHIN,**
**Rossiya Fanlar akademiyasining E. M. Primakov nomidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti katta ilmiy xodimi:**



— O'zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari, umuman, o'zaro hamkorlik jadalligi ancha tizimli oshib borayotgan bir sharoitda o'tmoqda.

Bu tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarni imkon qadar diversifikatsiya qilishga hamda o'zaro savdoni faollashtirish va sarmoyalarni jalb etishga intilayotgan O'zbekiston manfaatlarini ifodalaydi. Shu munosabat bilan Xitoy iqtisodiyotining ko'lami va jahon iqtisodiyotidagi yetakchiligini hisobga olgan holda ushbu davlat bilan hamkorlik eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, Xitoyning o'zi uchun esa O'zbekistonning geosiyosiy, iqtisodiy va demografik ahamiyatini inobatga olgan holda bu davlat bilan hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasidagi ustunlardan biridir. Oliy darajadagi intensiv aloqalar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda, bu esa Xitoyning butun Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqishi va strategik yondashuvini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha rejalarini hisobga olganda ushbu jabha mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatida eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

**Yakopo PEPE,**
**Fan va siyosat fondi yetakchi eksperti (Germaniya):**



— Xitoy bilan yaxshi munosabatlar butun Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Xitoy savdo bozori, texnologiya va sarmoya manbai, shuningdek, muhim tashqi siyosat hamkori sifatida muhim rol o'ynaydi.

Geografik yaqinlik va tobora kengayib borayotgan infratuzilmaviy o'zaro bog'liqlik Xitoyning O'zbekistonga, jumladan, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi va logistika kabi sohalarga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Pekinda yetakchilar bu ko'rsatkichni yaqin kelajakda 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjudligi haqida o'zaro fikr bildirdilar. Shuningdek, Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari hajmi bir necha barobar ortdi, qo'shma korxonalar soni ko'paymoqda va ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi hamkorlik ham faollashmoqda.

Pekindagi muzokaralarda tomonlar "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Transkontinental transport va tranzit ko'prigining muhim tarkibiy qismiga aylanishi maqsad qilingan Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishini ertaroq boshlash muhimligini ta'kidladilar.

Germaniya, albatta, O'zbekiston Prezidentining nafaqat qadimgi Buyuk Ipak yo'li bo'ylab, balki Yevropa va Osiyo xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish tashabbuslarini olqishlaydi.

Germaniya va Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni mutanosib tashqi siyosat yuritish yo'lida qo'llab-quvvatlashga tayyor. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishni mamlakatingizga va butun Markaziy Osiyoga nisbatan o'z siyosatimizni faollashtirish uchun rag'bat deb biladi.

**Ahmad TOHIR,**
**Misrning "Hivor" siyosiy-axborot tadqiqotlari markazi direktori:**



— Xalqaro masalalar bo'yicha mutaxassis sifatida O'zbekistonning, ayniqsa, so'nggi yetti yildagi taraqqiyotini diqqat bilan kuzatib boryapman.

O'zbekiston va Xitoy rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli ikki tomonlama munosabatlar barcha soha hamda yo'nalishlarda misli ko'rilmagan darajaga ko'tarilgani menda katta taassurot qoldirdi. O'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos ko'p bosqichli tizimi, jumladan, Hukumatlararo qo'mita, parlamentlararo guruh, tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasidagi strategik muloqot, faol gumanitar va mintaqalararo almashinuv kabi mexanizmlar shakllantirildi.

Xitoyning "Jenmin Jibao" gazetasida chop etilgan ikki davlat hamkorligiga bag'ishlangan maqolani katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston — Xitoy munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon qilgan. O'zbekiston yetakchisi ushbu maqolada ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning muhim vazifalarini amalga oshirish bo'yicha yangi uzoq muddatli kun tartibi va dasturlarni ishlab chiqishni taklif qilganini alohida ta'kidlamoqchiman.

O'ylaymanki, Xitoy bilan ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. O'zbekiston yetakchisining davlat tashrifi O'zbekiston — Xitoy hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlashga turtki bo'lishiga ishonaman.

**Sanjiv GUPTA,**
**"Kusum" kompaniyalar guruhi direktori (Hindiston):**



— O'zbekiston Prezidentining xorijiy davlatlarga safarlari yuqori amaliy natijalari bilan ajralib turadi. Xitoyga amalga oshirilgan davlat tashrifi ham ikki mamlakat o'rtasida erishilgan o'ta muhim qator kelishuvlar bilan e'tiborga sazovor bo'ldi.

Chorshanba kuni Pekin shahrida imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ularda hamkorlikning har bir jabhasi inobatga olingan.

Masalan, transport kommunikatsiyalari sohasini olaylik. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar mavjud transport koridorlarini yanada rivojlantirish va mukammallashtirishni talab etmoqda. Shu ma'noda, Xitoy — Markaziy Osiyo — Yevropa temir yo'l ekspresslari bo'yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi bayonnoma va "Havo Ipak yo'li"ni birgalikda barpo etish to'g'risidagi kelishuv amaliy ahamiyati bilan ajralib turibdi. Ushbu g'oya va loyihalarning hayotga tatbiq etilishi Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi transport aloqalarini mazmunan boyitadi, O'zbekistonning ushbu kommunikatsiya zanjiridagi o'rni va ahamiyatini yuksaltiradi.

**"Dunyo" AA.**

# XALQARO FORUM DOIRASIDA UCHRASHUVLAR O‘TKAZILDI

*Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) tomonidan o‘tkazilayotgan “Yangi O‘zbekiston: taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik” mavzuidagi xalqaro forumda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniyaning London shahrida bo‘lib turibdi.*

*Ta’kidlash joiz, O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi aloqalarda yuqori darajadagi siyosiy hamda diplomatik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuv uchun salmoqli salohiyat mavjud.*

*Shu nuqtayi nazardan, tashrifning birinchi kuni Senat Raisi ikki tomonlama qator uchrashuvlar o‘tkazdi.*

## Muloqot

### Gender tenglikni ta’minlash borasidagi natijalar yuqori baholandi

Buyuk Britaniyaning xotin-qizlar ishlari bo‘yicha vaziri Mariya Kolfild bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlar huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish borasida ikki mamlakat o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Xususan, xotin-qizlar huquq va manfaatlari himoyasi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish, iqlim o‘zgarishining opa-singillarimiz hayoti sifatiga ta’sirini kamaytirish yo‘nalishlariga e’tibor qaratildi.

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, xotin-qizlarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda “STEM” dasturi orqali qizlar uchun sifatli, arzon ta’lim berish bo‘yicha o‘zaro tajriba almashish yuzasidan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish borasida fikr almashildi.

O‘z navbatida, M. Kolfild yangi O‘zbekistonning xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish borasidagi sa’y-harakatlari strategik ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. U so‘nggi yillarda ayollarni kamsitishning barcha shakliga barham berish va gender tenglikni ta’minlash borasida erishilgan natijalarni yuqori baholadi.

Uchrashuv yakunida ikki mamlakat tegishli vazirlik va idoralari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni faollashtirishga kelishib olindi.

### O‘zaro aloqalar yanada rivojlantiriladi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva London shahrida Buyuk Britaniya parlamentining Lordlar palatasi spikeri Jon Makfoll bilan uchrashdi.

O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik muloqotni kengaytirish, parlament diplomatiyasini faollashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarga yangi tus berish hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar muzokaraning asosini tashkil etdi.

Uchrashuv avvalida keyingi yillarda O‘zbekistonda inson huquq va manfaatlarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyatni yanada demokratlashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar rivojiga qaratilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi yuzasidan batafsil ma’lumot berildi.

Muloqot chog‘ida davlatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishga ustuvor masala sifatida qaralishi, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni kengaytirish mamlakatlarimiz uchun manfaatli ekani, bunda O‘zbekiston — Britaniya investitsiya forumi ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun samarali platformaga aylangani alohida ta’kidlab o‘tildi.

O‘zaro investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi aloqalar ko‘lamini kengaytirish, ta’lim, texnologiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirishda parlamentlar imkoniyatidan unumli foydalanish yuzasidan fikr almashildi. Ayni chog‘da Buyuk Britaniya va O‘zbekistonda, umuman, jahonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda parlamentlararo muloqotni faollashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Xususan, qonunlarni qabul qilish, parlament nazoratini amalga oshirish yo‘nalishlarida tajriba almashish, o‘zaro aloqa va yaqin munosabatlarni mustahkamlash uchun har ikki davlat parlamentlari a’zolarining tashriflarini amalga oshirish, shuningdek, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida o‘tkazilgan muzokara va erishilgan kelishuvlar natijalaridan kelib chiqib, hamkorlik bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga kelishib olindi.

### Odam savdosiga qarshi kurashish va Buyuk Britaniya tajribasi

Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva Buyuk Britaniya Bosh vazirining Majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha maxsus vakili Jastin Bedford bilan muzokara o‘tkazdi.

Uchrashuvda ijtimoiy-mehnat munosabatlari va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar muhokama etildi.

Maxsus vakilga mamlakatimizda ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qator ijtimoiy huquqlar belgilangani, majburiy va bolalar mehnatining har qanday ko‘rinishi taqiqlangani hamda qulay mehnat sharoitini yaratishga xizmat qiladigan Mehnat kodeksining yangi tahriri haqida batafsil ma’lumot berildi.

Muloqot davomida odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida o‘zaro tajriba almashish, mazkur yo‘nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, zamonaviy qullikka qarshi kurash borasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yuzasidan fikr almashildi.

Britaniya tomoni 2023-yil oxirida Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya sifatida qayta tashkil etilgan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy komissiyaning faoliyatini yuqori baholadi.

Uchrashuvda tomonlar mehnat munosabatlari sohasida yangi qo‘shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va sohaga innovatsion uslublarni joriy etish yo‘nalishlarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

**“Xalq so‘zi”.**

# POYTAXT HAVOSI QACHON YAXSHILANADI?

*Oliy Majlis Senatining Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi tomonidan Ekoharakat, Toshkent davlat transport universiteti bilan hamkorlikda jamoatchilik eshituvi tashkil etildi. Tadbir Toshkent shahri havosining ifloslanishi sabablari va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlandi.*

## Eshituv

Eshituvda alohida qayd etilganidek, oxirgi yillarda mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta’minlash, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofazalash hamda yashil maydonlarni kengaytirish va ularni saqlab qolish borasida tizimli choralar ko‘rilayotir.

Barqaror rivojlanishga qaratilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham atrof-muhitni, jumladan, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda hududlarni ko‘kalamzorlashtirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Ishtirokchilar tomonidan ta’kidlab o‘tilganidek, shu kabi izchil sa’y-harakatlarga qaramasdan mamlakatimiz hududlarining salmoqli qismi adirlardan iboratligi hamda hozirgidek global iqlim o‘zgarishi sharoitida atmosfera havosini muhofaza qilish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, so‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishi kengayishi, transport vositalari sonining ortishi, tirbandliklar natijasida atrof-muhitga ifloslantiruvchi tashlamalar hajmi ortib borayotgani ham, albatta, tashvishlidir.

Tabiiyki, sanoatlashgan hududlar havosining ifloslanishi va uning oqibatlari jamoatchilikni befarq qoldirayotgani yo‘q. Xususan, oxirgi paytlarda poytaxtimiz havosi ifloslanib, tegishli reytinglarda “qizil” ko‘rsatkichlar qayd etilmoqdaki, bu, o‘z navbatida, jamoatchilikning haqli e’tiroziga sabab bo‘lmoqda. Aniq aytadigan bo‘lsak, Toshkent shahri atmosferasida mayda dispersli zarralar bo‘yicha havo sifatining yomonligi muntazam kuzatilyapti. Bu holat jamoatchilik va poytaxt aholisida asosli xavotir uyg‘otayotir.

Bugungi kunda Toshkent shahridagi kuzatuvlar “O‘zgidromet”ning 13 ta statsionar posti hamda 2 ta avtomatik stansiyasida onlayn rejimda amalga oshirilmoqda. Mazkur tuzilma ma’lumotlariga ko‘ra, kuzatilayotgan aksariyat shaharlarda, jumladan, Toshkent shahrida uglerod oksidi va uglevodorodlar chiqindilari kamaygan, biroq ayni paytda azot oksidi va qattiq zarrachalar, ayniqsa, mikrochang zarralari ortib boryapti.

Ishtirokchilar tomonidan aytilganidek, poytaxtdagi mavjud noqulay ekologik va gigiyenik vaziyat davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun ifloslangan atmosfera havosining shahar aholisi sog‘lig‘iga salbiy ta’sirini minimallashtirish bo‘yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarurligi to‘g‘risidagi signaldir.

Tadbirda sifatsiz yonilg‘ida ishlaydigan avtotransport vositalaridan atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalar, issiqlik va elektr stansiyalarida ko‘mir va mazut yoqilg‘ilaridan foydalanish, tartibsiz qurilish jarayonlari, daraxtlar kesilishi va yashil maydonlar qisqarishi kabi omillar atmosfera havosi ifloslanishidagi asosiy sabablar sifatida keltirildi. Misol tariqasida Toshkent shahrida kuniga o‘rtacha 730 mingta transport vositasi harakatlanishi hamda viloyatlardan poytaxtga 160 mingdan 300 minggacha transport kirib kelayotgani keltirildi. Eng yomoni, ularning aksariyati past sifatli yonilg‘idan foydalanadi.

Jamoatchilik eshituvi davomida ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflar asosida atmosfera havosini muhofaza qilish, xususan, Toshkent shahri havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilib, uni Hukumatga taqdim etishga kelishib olindi.

Ushbu sa’y-harakatlar, pirovardida ko‘pchilik tomonidan aytilayotgan: “Poytaxtimiz havosi qachon yaxshilanadi?” degan haqli savolga javob topish imkonini berishiga umid qilib qolamiz.

**Zokir XUDOYSHUKUROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# QONUN IJODKORLIGI VA TA’SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI

## Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatda yosh deputatlarning o‘rni va roli qanday bo‘ldi?

*“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”.*

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida qayd etilgan bu so‘zlar O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati izchil va tizimli amalga oshirib borilayotganini tasdiqlaydi.*



## Sarhisob

Bu bejiz emas. Chunki bugungi tezkor davrning o‘zi tashabbuskor, shijoatli, bilimli yigit-qizlarning kreativ va zamonaviy g‘oyalaridan unumli foydalanish orqali har qanday sohani taraqqiy ettirish mumkinligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shu sababli, Prezident tashabbusi bilan parlamentning har ikki palatasi huzurida Yoshlar parlamenti singari unikal institut tashkil qilindi. Yoshlar parlamentining mustaqil fikrlaydigan, intiluvchan va dunyoqarashi teran a’zolari o‘z tengdoshlarini qonun ijodkorligi jarayoniga keng yo‘naltirishda, qabul qilinayotgan qonunlarni navqiron avlod orasida targ‘ib etishda faollik ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, parlament quyi palatasida yigit-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kuchli himoya qilib kelayotgan yana bir bo‘g‘in — Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tuzilgan bo‘lib, uning a’zolari palatada ko‘rib chiqilayotgan qonunlarda ertamiz egalarining manfaati yuqori darajada muhofaza qilinishiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Yaqinda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyaning 2023-yildagi faoliyatiga oid axboroti tinglandi. Unda qayd etilganidek, komissiya o‘tgan yildagi faoliyatini bir qator muhim yo‘nalishlarda olib borgan.

***Birinchidan***, parlamentda ko‘rilgan qonun loyihalariga komissiya tomonidan navqiron avlodning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari inobatga olingan takliflar berish amaliyoti jadallik bilan rivojlantirildi.

7 nafar yosh deputatdan iborat komissiya quyi palatada o‘tgan yili ko‘rib chiqilgan har bir qonun loyihasi yuzasidan 80 dan ziyod asoslantirilgan takliflarni berdi va ularning aksariyati inobatga olingan. Qiyoslash uchun aytish kerak, 2022-yilda taqdim qilingan takliflar 50 dan ortiqni tashkil etgandi.

Misol uchun, “Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi yuzasidan berilgan takliflar mas’ul qo‘mita tomonidan qabul qilindi.

2024-yildagi Davlat budjeti taqsimotini nazarda tutuvchi qonun loyihasiga berilgan taklif ham e’tibordan chetda qolmadi. Komissiya a’zolari muhokamalar jarayonida virusli gepatitning “S” va “V” turlarini erta tashxislash va virusga qarshi maxsus davolash ishlarini tashkil etish xarajatlari kamaytirilayotganini keskin tanqid qilish barobarida yiliga bir marta 40 yoshdan oshgan bemorlarning qandli diabet va diabetoldi holati skriningini o‘tkazish xarajatlariga budjetdan qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi bo‘yicha taklifni ilgari surdi. Natijada sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha 25,8 mlrd. so‘m mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi.

***Ikkinchidan***, komissiya a’zolari hududlarga chiqqan holda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Korrupsiyasiz soha” loyihasi doirasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar holati Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalari misolida nazorat-tahlil tartibida o‘rganildi.

Uning natijasiga ko‘ra, aniqlangan kamchilik va holatlarni bartaraf etish yuzasidan asoslantirilgan taklif hamda xulosalar taqdim qilindi.

Bundan tashqari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklarining “Bitiruvchi talaba yoshlarning bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Unda oliy ta’lim muassasalari talabalarining rasman ishga joylashishi jarayonida uchrab turgan ayrim sun’iy to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinib, bitiruvchi talabalarni mehnat bozoriga yetuk kadr sifatida tayyorlash bo‘yicha qator tavsiyalar ilgari surildi.

Komissiya a’zolari keng jamoatchilikni o‘ylantirib turgan og‘riqli masalalarning hal etilishi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarning axborotini tinglash bilan bir qatorda, ushbu masalalarning yechimi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zlarining mustaqil nuqtayi nazarini bildirib bordi. Jumladan, ularning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi preparatlarning noqonuniy savdosining oldini olish, yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash hamda yo‘l harakati qoidalariga yangi tizimlarni joriy etish borasida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan va boshqa ko‘plab takliflari jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokamadan o‘tkazildi.

***Uchinchidan***, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish yo‘nalishida ham komissiya a’zolari faol bo‘lgan.

Jumladan, komissiya tashabbusi bilan Yoshlar parlamenti, siyosiy partiyalarning fraksiyalari, qo‘mitalar hamda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ko‘plab tadbirlar o‘tkazilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi normalarni aholining keng qatlami o‘rtasida tushuntirishga, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga, qonun ijodkorligida ularning o‘rni va rolini oshirishga qaratilgan 300 ga yaqin targ‘ibot tadbirlarida 15 mingga yaqin yigit-qizlar qamrab olindi.

Hisobot davrida xorijiy davlatlar parlamentlarining yoshlar tuzilmalari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini yanada mustahkamlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Yosh deputatlar Koreya Respublikasining Pusan, Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg, Qirg‘iz Respublikasining Bishkek va boshqa shaharlarda o‘tkazilgan onlayn hamda oflayn xalqaro anjumanlarda iqlim inqirozi, xalqaro terrorizm kabi global tahdidlarga qarshi kurashish masalalari muhokama qilingan turli xalqaro konferensiya va anjumanlarda o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Majlisda Qonunchilik palatasidagi Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyaning 2023-yildagi faoliyatiga oid hisoboti deputatlar tomonidan alohida e’tirof etildi. Shu bilan birga, ushbu tuzilmaning faoliyatini yanada jadallashtirish, kelajak vorislari manfaatiga mos va xos qonunlarni ishlab chiqishdagi tashabbuskorlikni qo‘ldan boy bermaslik, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shish bo‘yicha o‘rinli taklif va tavsiyalar bildirildi.

## So‘z — ishtirokchilarga

**Bahrom RAHMONALIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**



— Hisobot davrida komissiya tomonidan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan nazorat-tahlil tadbirlari samarali amalga oshirilganini e’tirof etish kerak.

Shu bilan birga, bu borada qilinishi zarur bo‘lgan ishlar yetarlicha ekanligini qayd etmoqchiman. Ayniqsa, 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida komissiya a’zolari Yoshlar kichik sanoat zonalarining faoliyatini o‘rganishi zarur, deb hisoblaydi. Ya’ni tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan yigit-qizlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar samaradorligi hamda kichik sanoat zonalarida ishlash uchun talabgorlar oldida qanday muammo va to‘siqlar mavjudligini o‘rganish hamda ularni bartaraf qilish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

**Shahnoza JOLDASOVA,**
**Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi:**



— Komissiya a’zolari hisobot davrida quyi palata huzuridagi Yoshlar parlamentiga saylovlarni o‘tkazishda muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritdi. Navqiron avlod vakillaridan 150 nafar munosibning saylanishida siyosiy partiyalarda o‘tkazilgan jarayonlarda ishtirok etdi. Tahlillarga ko‘ra, bitta o‘ringa 50 nafar yosh o‘zaro raqobat qilgani yigit-qizlarning parlament faoliyatiga qiziqishi ortgani va targ‘ibot-tashviqot ishlarining maqsadli olib borilganini ko‘rsatadi.

Komissiya o‘tgan davr mobaynida mutlaqo yangicha tizimda faoliyat yuritib, yoshlar tashkilotlari hamda siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanotlari” bilan yaqindan hamkorlik qilganligini alohida e’tirof etish joiz. Xususan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun loyihasini tegishli yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab, jami 20 dan ortiq takliflar tayyorlangani tahsinga sazovor.

O‘z navbatida, komissiya joriy yilda ham yigit-qizlarni parlament hayotiga keng jalb qilish va ularning takliflarini muntazam olib borish maqsadida yoshlar tashkilotlari bilan yaqindan ishlash hamda ularning salohiyatidan maksimal darajada foydalanishi zarur.

**Shahnoza XOLMAHAMATOVA,**
**Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya a’zosi:**



— Quyi palata majlisida komissiyamizning yillik faoliyati sarhisobi deputatlar tomonidan alohida ishtiyoq bilan ko‘rib chiqildi. Deputatlar yosh hamkasblarining faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotganini, ular kelajak avlod masalasiga befarq emasliklarini ich-ichimdan his qildim. Bundan xulosa shuki, biz, komissiya a’zolari kelgusi faoliyatimizni yanada samaraliroq olib borishimiz, o‘zimizga nisbatan yanada talabchanroq bo‘lishimiz kerak.

Yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda bu boradagi parlament nazoratini amalga oshirishda deputatlar bergan takliflarni birma-bir ko‘rib chiqamiz va joriy yildagi faoliyatimiz ish-rejasiga qo‘shimcha sifatida kiritamiz.

**“Xalq so‘zi”.**

## Deputatlar — hududlarda

# JOYLARDA QANDAY MUAMMOLAR O‘RGANILMOQDA?

*Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z saylov okruglarida bo‘lib, aholi bilan ochiq muloqotlar o‘tkazmoqda.*

*Alohida qayd etish joiz, shu hafta o‘rtasida quyi palatadagi Ekologik partiya fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasining qo‘shma yig‘ilishida deputatlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining respublikada, shu jumladan, Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to‘g‘risidagi axborotini dastlabki tarzda ko‘rib chiqishgan edi.*

*Xalq vakillarining ayni paytda hududlarda bo‘lishi joylarda atmosfera havosi muhofazasiga oid ko‘rilayotgan choralar bo‘yicha haqiqiy holatni o‘rganish hamda aholining fikr-mulohazalarini eshitish uchun qulay fursatdir. Zero, ushbu masala bugungi kunda o‘ta dolzarb bo‘lib, Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida mas’ul vazirlikning bu bo‘yicha axborot berishi rejalashtirilgan.*

### Ekologik holat qay darajada?

Deputatlar Navro‘zbek Yusupov, Muxtor Hojimatov va boshqalar dastlab Gidrometeorologiya xizmati agentligi tomonidan poytaxtimizda atmosfera havosi ifloslanishini avtomatik monitoring qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan maxsus vakolatli davlat organi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar Toshkent shahar IVV Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasiga borgan holda o‘rganildi.

Uchrashuvlar chog‘ida deputatlar atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikning amalda rioya etilishi masalalariga ham alohida e’tibor qaratdilar. Avtomototransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta’siri ustidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish borasidagi ishlar ham xalq vakillari e’tiborida bo‘ldi.

Deputatlar tomonidan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi ham o‘rganildi.

### Hamkorlikda yechim topilmoqda

Deputat Durbek Ahmedovning Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi saylovchilar bilan muloqotlari ochiq va samimiy ruhda o‘tdi.

Deputat xalq deputatlari Uchtepa tumani Kengashi deputati Anvar Musayev bilan birgalikda hududdagi “Hamdo‘st” va “Nurobod” mahalla fuqarolar yig‘inlarida bo‘lib, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faollari bilan yaqindan muloqot qildi.

Uchrashuv davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangi qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident Farmon va qarorlarining mazmun-mohiyati tushuntirildi. Saylovchilarni o‘ylantirib kelayotgan bir qator masalalarga tegishli idoralar vakillari bilan birgalikda yechim topildi.

Mazkur uchrashuvlar davomida deputat 194-sonli umumta’lim maktabida bo‘lib, muassasada o‘quvchi-yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan qiziqdi.

Shuningdek, Uchtepa tumanidagi bir qator tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan tanishib, ularga yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, biznes vakillariga yaratilayotgan sharoitlar haqida keng ma’lumot berdi.

### Ta’lim olish imkoniyati va imtiyozlar

Deputat Akshagul To‘legenovaning Navoiy viloyatidagi bir qator mahallalar, ta’lim va tibbiyot muassasalarida bo‘lib o‘tgan aholi bilan muloqotlari ilk kundanoq samarali kechdi.

Dastlab Navoiy davlat pedagogika instituti talabalari bilan uchrashuvda keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani, ilm-fanga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, ushbu sohada oxirgi olti-yetti yilda ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘lganligi qayd etildi.

— Bir paytlar oliygohlarga o‘qishga kirish juda qiyin edi. Kvotalar kam, qabul imtihonlarida turli muammolar bo‘lardi. So‘nggi yetti yilda ta’lim sohasi katta o‘zgarishlarga yuz tutdi, — dedi Qonunchilik palatasi deputati A. To‘legenova. — Xususan, bilim dargohlarining qiyofasi tubdan o‘zgarib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Bu, o‘z navbatida, ta’limning sifati va darajasini oshirgan holda, yoshlar o‘rtasida oliy ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirdi.

### O‘n sakkiz nafar fuqaro ishli bo‘ldi

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Ko‘tarma mahallasida ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning bandligiga ko‘maklashish, ularni mehnat bozoridagi kasblarga yo‘naltirish maqsadida “mehnat yarmarkasi” tashkil etildi.

Qonunchilik palatasi deputati M. Husanova, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri o‘rinbosari R. Turdiboyeva, tegishli tashkilot va idoralar mutasaddilari ishtirok etgan tadbirda keyingi yillarda mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgani ta’kidlandi.

— Har bir inson tayinli ish joyiga ega bo‘lsagina, unda o‘z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo‘ladi, — dedi Qonunchilik palatasi deputati M. Husanova. — Shu sababli, yurtimizda aholini kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash, yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi yarmarkalarning tashkil qilinishi, shubhasiz, ishsiz fuqarolarning munosib ish o‘rni topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yarmarkada tumandagi 55 ta mahalladan 154 nafar ishsiz fuqaro qatnashdi. 38 ta tashkilot va korxonadan 327 ta bo‘sh ish o‘rni taqdim etildi. Tadbir davomida 25 nafar fuqaroga ishga yo‘llanma berilgan bo‘lsa, 18 nafar fuqaro shu kunning o‘zida ishga joylashtirildi.

Tadbir doirasida yarmarka tashkilotchilari hamda mutaxassislar tomonidan mehnat qonunchiligi, fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish yuzasidan suhbatlar o‘tkazildi, yoshlarga huquqiy maslahatlar berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# AQSHDA “RISHTON KERAMIKASI: MARKAZIY OSIYO KULOLCHILIK SAN’ATINING GAVHARI” NOMLI KO‘RGAZMA VA SHOU-RUM OCHILDI

*O‘zbekistonning AQSHdagi elchixonasi tomonidan Farg‘ona viloyatining Rishton tumani hokimligi bilan birgalikda Vashingtonda “Rishton keramikasi: Markaziy Osiyo kulolchilik san’atining gavhari” nomli ko‘rgazma tashkil qilindi, deb xabar bermoqda “Dunyo” AA muxbiri.*

*Tadbirda amerikalik taniqli san’at arboblari, kolleksionerlar, yirik biznes, hukumat, siyosiy, akademik, ekspert doiralari va OAV vakillari hamda faol vatandoshlarimiz ishtirok etdi. Shuningdek, yuqori martabali mehmonlar — AQSH Prezidentining maxsus yordamchisi Nikolas Berliner, ijtimoiy himoya va nogironlar bo‘yicha maslahatchisi Sara Minkara, savdo vazirining birinchi o‘rinbosari Marisa Lago va USAID rahbarining o‘rinbosari Anjali Kaur hamda Kongress a’zolari qatnashdi.*

**E’tirof**





Ko‘rgazmaning ochilish marosimida AQSH Prezidentining maxsus yordamchisi Nikolas Berliner O‘zbekiston asrlar davomida madaniyat va taraqqiyot markazi bo‘lib kelganini, ushbu zaminda Rishton kulolchiligi kabi noyob san’at turlari shakllanganligini ta’kidladi.

Nikolas Berliner O‘zbekistonda erishilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga alohida to‘xtalar ekan, bugungi kunda mamlakat mintaqaning iqtisodiy katalizatoriga aylanganini va Markaziy Osiyo barqaror kelajagi uchun mustahkam poydevor rolini bajarayotganini urg‘uladi.

“Hozirgi kunda O‘zbekiston rahbariyati hamda nafis san’at muxlisi bo‘lgan o‘zbek xalqi ushbu qadimiy kulolchilik maktabini nafaqat avaylab asramoqda, balki uni jahon miqyosida tanitmoqda. Bugungi ko‘rgazmaning Vashingtonda o‘tkazilishi bunga yaqqol misoldir, — dedi AQSH Prezidentining maxsus yordamchisi. — Qo‘shma Shtatlar yangi O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga sodiqdir. Biz Vashington va Toshkent o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va tenglikka asoslangan do‘stlik aloqalarini bundan buyon ham mustahkamlashga, uning ko‘lamini esa yanada kengaytirishga tayyorligimizni bildiramiz”.

Savdo vazirining birinchi o‘rinbosari Marisa Lago, o‘z navbatida, Amerika va O‘zbekiston o‘rtasida jadal taraqqiy etib borayotgan iqtisodiy munosabatlar rivojiga 2023-yil sentabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning AQSHga uyushtirgan tashrifi va uning doirasida erishilgan kelishuvlar katta turtki bo‘lganini qayd etdi.

USAID rahbari o‘rinbosari Anjali Kaur o‘z chiqishida azaldan kulolchilik san’atiga qiziqishi sababli ushbu ko‘rgazmani intiqlik bilan kutganini bildirdi.

“Go‘zal va betakror Rishton kulolchiligi Amerika jamoatchiligi uchun yangi yo‘nalish bo‘lganligi sababli unga qiziqish boshqa davlatlar san’atiga nisbatan ortib bormoqda. Misol uchun, O‘zbekiston elchixonasida ochilgan ushbu ko‘rgazma va uning doirasida o‘tkazilayotgan mahorat darslari mamlakatimiz jamoatchiligi orasida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi”, dedi u.

Tadbir doirasida, shuningdek, O‘zbekiston elchixonasi huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan kulolchilik shou-rumi ham ochildi.

Ko‘rgazma davomida bo‘lib o‘tgan ikki tomonlama muzokaralar yakunida Amerikaning “DIAMOND Inc.” kompaniyasi va Rishton shahridagi “Mingboshi Ceramic” MCHJ o‘rtasida 5 million dollar miqdorida keramika mahsulotlarini xarid qilish hamda “ASU Trading LLC” va “Exclusive Ceramic of Rishtan” MCHJ o‘rtasida mamlakat shtatlarida keramika mahsulotlarini sotish bo‘yicha distribyutorlik shartnomalari imzolandi.

Shuningdek, Rishton tumani hokimligi, USAID va “Aleksandriya loy kooperativi” studiyasi o‘rtasida AQSHda “Rishton kulolchilik maktabini tashkil etish” va okean-orti kulolchilik sohasi ixlosmandlarining Rishtonga safarini uyushtirish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

**“Dunyo” AA.**
Vashington

# MANTIQSIZ UYDIRMALAR MUNOSABATLARIMIZGA RAXNA SOLADI

*So‘nggi kunlarda OAV va internet global tarmog‘ida tarixchi, imperiyachi va monarxiyachi Mixail Smolin tomonidan yangragan go‘yoki o‘zbeklar, ozarbayjonlar va qozoqlar hech qachon mavjud bo‘lmagani, inqilobdan keyin bu millatlar sun’iy tarzda paydo qilingani haqidagi safsata jonajon Vatanimiz va turkiy tilli qardoshlarimizning keng jamoatchiligini qattiq larzaga soldi.*

## It hurar, karvon o‘tar

Smolin va u kabi fikr bildiruvchilarning xatti-harakatlari, o‘ylab-o‘ylamay so‘z aytishlarini nafaqat bizga nisbatan katta haqorat, balki Rossiya davlatining mavqeiga chaplangan katta dog‘ sifatida baholash mumkin. Negaki, bunday fikrlar aytish bilan do‘st davlatning ayrim fuqarolari o‘z yurtining agressiya tarafdori sifatida namoyon bo‘lishini istashayotganini ko‘rsatib beradi. Bunday chiqishlardan kutilayotgan maqsad har qanaqa jihatdan ham mantiqsizlikdir, aslida. Shu bilan bir qatorda, bu strategik hamkor davlatlarning xalqaro darajada bir-birining suverenitetini tan olganligi haqidagi kelishuvlariga nisbatan ishonchsizlikdir.

Shu o‘rinda ushbu haqoratli fikrlar bo‘yicha savol qo‘yadigan bo‘lsak, unda o‘zbek, ozarbayjon va qozoq xalqlari qaysi asoslarga ko‘ra tashkil etildi? Ular qaysi asoslarga tayanib nomlandi? Bu savollarning o‘ziyoq “yasama” tarixchining salohiyati haminqadarligini yana bir bor ochib beradi.

Agar tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, o‘zbek nomi XIII asrda vujudga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Buni Dashti Qipchoqda yashovchi qabilalarga nisbatan arab manbalarida o‘zbek nomi ishlatilgani tasdiqlaydi.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinning ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, XVI — XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropada nashr etilgan dunyoning siyosiy xaritalarida O‘rta Osiyo hududlari “Usbek” (“Usbec”, “Usbeck”, “Vsbek”), “Usbekia” (“Usbechia”), uning ayrim qismlari esa “Usbek Bucharia”, “Usbek Bochara”, “Usbek Chowaresmia”, “Usbek Mawaralnahra”, “Usbek Turkistan”, “Usbek Turan”, “Usbek Tartaria”, “Us-bek Zagatay” singari nomlar bilan atalgan. “Usbeck”, “Usbekia” va “Ozbegistan” kabi nomlar bilan atalgan tarixiy xaritalar jami 200 dan ko‘p. Bu xaritalar shundan dalolat beradiki, “O‘zbekiston” atamasi 1924-yilda ruslar tomonidan o‘ylab topilgan emas, u O‘rta asrlarda Yevropaning siyosiy va tarixiy-geografik tizimida ishlatilgan.

Yevropaliklar tomonidan O‘rta Osiyo mintaqasining XVI — XVIII asrlarda nashr etilgan xaritalari ichida yunon sayohatchisi Vasilio Vatatzining 1732-yilda Londonda chop qilingan “Kaspiy dengizi va Orol dengizi xaritasi” alohida ahamiyatga ega. Orol dengizidan boshlab Pomir tog‘lariga qadar hududlarni o‘z ichiga oluvchi Amudaryo havzasidagi barcha yerlar xaritada “OZMPE-GISTAN”, ya’ni “O‘zbekiston mamlakati” deb ko‘rsatilgan. Daniyalik xaritashunos Abraxam Maasning Sankt-Peterburgda chizilgan “Kaspiy dengizi va O‘zbek mamlakati xaritasi”da esa bugungi kunda mamlakatimiz joylashgan mintaqa hududi “Usbek”, qo‘lyozmasida “Usbekia” toponimi bilan ko‘rsatilgan. Bu xarita muallifi Rossiya hukmdori Petr I davrida Rossiya Fanlar akademiyasi Rus geografik jamiyatining kartografik bo‘limi boshlig‘i sifatida xizmat qilgan vaqtda ishlab chiqilgan.

Tarixiy xaritalardagi ma’lumotlarni yozma manbalarda keltirilgan dalillar ham tasdiqlaydi. Masalan, safaviylar sulolasiga mansub Eron shohi Tahmasp I (1524 — 1576) Movarounnahrda joylashgan Shayboniylar davlatini “O‘zbekiston” deb atagan. 1562-yilda ispan tarixchisi Garsiya da Orta O‘rta Osiyoda joylashgan “O‘zbek mamlakati” haqida so‘z yuritgan. XVII asrda Buxoro shahrida yashab ijod qilgan Turdi Farog‘iy o‘zining o‘zbek va fors tilida bitilgan she’rlarida o‘z mamlakatini “O‘zbek yurti” va “O‘zbekiston” deb atagan.

Ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar shovinist Mixail Smolin tomonidan aytilgan *“o‘zbeklar, qozoqlar va ozarbayjonlar hech qachon mavjud bo‘lmagan, inqilobdan keyin Leninning panohida volyuntaristik tarzda xaritalarni o‘zgartirishlar boshlandi, RSFR parchalandi, undan yasama millatlar yasaldi”* degan iddaolar zamiri puch ekanligini ro‘yirost ochib beradi.

Agar shaxsiy fikrlar ostida qadimgi davrlarda turkiy qabilalar Sibirdan O‘rta Yer dengizigacha bo‘lgan hududda yashagani haqidagi tarixiy haqiqatlarni so‘zlasak va hududiy da’volarni ilgari sursak, Smolinda ham biz hozir his qilayotgan tuyg‘ular uyg‘onishi tabiiy. Bugun o‘zaro hamjihat bo‘lgan, bir-birining yaxshi-yomon kunida yelkadosh bo‘lgan xalqlar orasiga bunday tarzda nifoq solish haqiqiy Vatan xoinining xatti-harakatidir, nazarimizda. Bunday vaziyatda rus ilmiy jamoatchiligi va tarixchilari tomonidan tarixiy haqiqatlarning asl mohiyati boricha ochib berilishi hamda Smolin kabi fikrlovchilarga barcha xalqlar tarixi va qadriyatlarini hurmat qilishga chaqiruvlar yangrashi kerak. Nafrat tuyg‘ularining uyg‘onmasligi uchun ham bu ish amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Shaxsiy fikr niqobi ostida yirik telekanallar orqali yangrayotgan bu kabi qarashlar va bayonotlar xalqlarimizning asliy qadriyatlariga mutlaqo zid bo‘lib, bunday chiqishlar zamirida yotgan maqsadlar barchani birdek sergak torttiradi. Ishonchimiz komilki, niyati sof bo‘lmagan kimsalarning bu taxlit yangragan turli ig‘voli fikrlari O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi strategik hamkorlik, do‘stona munosabatlar va o‘zaro ishonch asosiga qurilgan mustahkam rishtalarga daxl qila olmaydi.

Ayni vaqtda Rus knyazliklarini Oltin O‘rda zulmidan ozod qilgan buyuk sarkarda Amir Temur kabi uzoqni ko‘zlab, hissiyotga berilmasdan, mantiqqa tayanib qaror qabul qilish barcha uchun manfaatli bo‘ladi. Smolin esa Tretyakovskiy cherkovi muzeyida saqlanayotgan Bibi Maryam ikonasi tarixini chuqurroq o‘rganib chiqsa, vijdoni oldida qanday mashaqqat turganini ko‘proq anglagan bo‘lardi.

**Nodir JUMAYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,**
**iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

# OROL INQIROZI – INSON E’TIBORSIZLIGINING AYANCHLI OQIBATI



***Bugungi kunda ko‘plab global muammolar jamiyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Jumladan, ekologik muvozanatning buzilishi va biosfera holati, atrof-muhit sifatining yomonlashishi inson hayoti uchun zarur bo‘lgan tabiiy ne’matlarga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu bois mamlakatimizda Orolbo‘yi aholisi turmush darajasini yuksaltirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotgani barchamizni quvontirmoqda.***

## Nuqtai nazar

Ushbu siyosatning asosiy maqsadi mintaqadagi global muammolardan biri bo‘lgan Orolbo‘yi aholisi salomatligini muhofaza etish, hududdagi bioxilmaxillikni saqlash hisoblanib, bu yo‘nalishda dengiz inqirozidan so‘ng yuzaga kelgan ekologik vaziyatni yumshatish bilan bog‘liq qonunlar, Farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi.

2021-yilning 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasining yalpi majlisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taklifiga ko‘ra, Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan ma’qullandi.

Ayni paytda mazkur yo‘nalishda Orol mintaqasida qurg‘oqchilik davom etishining oldini olish, ya’ni Orol sathidan zaharli changlarning havoga ko‘tarilishini to‘xtatish uchun dengizning qurib qolgan hududlarini o‘rmonzorga aylantirish harakatlari qizg‘in olib borilmoqda.

2023-yilning 22 — 24-mart kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida tuzilmaning suv masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan konferensiyasida mamlakatimiz delegatsiyasi a’zosi Saida Mirziyoyeva nutq so‘zlab, BMT minbaridan Orol dengizi fojiasining oqibatlari, ularni yumshatish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar va bu boradagi xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirishda mamlakatimizning yetakchiligi xususida so‘z yuritdi.

Xususan, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning elegiyasidan bir parcha (qoraqalpoq tilida) o‘qib berdi:

*Tao‘lar shegip, jerge kirmegen shıg‘ar,*
*Juldızlar həm birden sənbegen shıg‘ar.*
*Dүnya hesh o‘aqta-da kөrmegen shıg‘ar:*
*Bir maydanda teңiz qurıp qalg‘anın.*

She’rda dengizning ko‘z ochib-yumguncha sahroga aylanishi fojiasi tasvirlangan. Qoraqalpog‘istonda odamlar hamon dengizni qo‘msab, qadrdonini yod olib yig‘lagan kabi faryod chekadilar. Suvga mo‘l dengiz faqat Nukus muzeyidagi rassomlarning yarqirab, jilvalanib, hayot va erkinlik baxsh etuvchi rasmlarida qolgan. U qurib bitgandagina odamlar uning qadriga yetdi. Orol dengizining inqirozi insoniyatning atrof-muhitga e’tiborsizligi oqibatlari haqida dahshatli eslatmadir. Biroq g‘amxo‘r odamlarning sa’y-harakatlari tufayli u yana umid va yangilanish ramziga aylanmoqda.



Mamlakatimiz Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida izchil sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda, deya ta’kidlagan edi Saida Mirziyoyeva.

Ahamiyatlisi, Orolbo‘yi mintaqasi tizimini muhofaza qilish Konstitutsiya darajasida mustahkamlanganligi xalqimizni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, mintaqaning rivojlanishi uchun barcha sharoit yaratilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Prezidentining sa’y-harakati bilan bugun Mo‘ynoqning yangi qiyofasi yaratildi, hududga yangi ruh, jon bag‘ishlandi. Mo‘ynoq hududi, Orol dengizining qurigan tubida ham ilmiy innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi tomonidan istiqbolli ilmiy izlanishlar olib borilyapti.

Institutimizning bosh maqsadi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mintaqaning ekologik muammolarini bartaraf etish, respublikamizning tabiiy, energetika, mineral xomashyo va o‘simlik resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish bo‘yicha istiqbolli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, ilmiy kadrlarni tayyorlash, fan-ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, mintaqaning rivojlanishi uchun ahamiyatli bo‘lgan xalqaro loyihalarda ishtirok qilish hisoblanadi. Bizning ilmiy faoliyatimiz ham atrof-muhitni muhofaza etish, barqaror rivojlanishni tabiiy ilmiy yondashuv negizida ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq.

Hozirgi kunda institutimiz olimlari Orolbo‘yi atrofidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida va ekologik muammolarni yechish bo‘yicha tizimli harakatlarning ishtirokchisi bo‘lib, ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. Bu tadqiqotlar natijasida olimlarimiz Orol dengizi va Orolbo‘yi tabiiy hududlari biologik rejimi o‘zgarishlarini ko‘rsatuvchi juda ko‘p va turli-tuman, noyob materiallarni to‘pladi.

Aytish joiz, institutimizda 2023-yil 16-17-noyabr kunlari an’anaviy “Janubiy Orolbo‘yi biologik resurslarini saqlash va samarali foydalanish muammolari” degan IX xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilindi. Konferensiyaning maqsadi mavjud ekologik muammolarni hal etishga tegishli mutaxassislarni, olimlarni va aholining keng qatlamini jalb qilishdir. Mazkur anjumanda mamlakatimiz va chet davlatlar yetakchi ilmiy muassasalarining, oliy o‘quv yurtlari va boshqa tashkilotlar vakillari hamda yosh olimlar, doktorantlar, tadqiqotchi-izlanuvchilar qatnashdi.

Olimlar janubiy Orolbo‘yi tabiiy muhitining hozirgi holatini o‘z chiqishlarida tasvirlab berdi. Yerdan foydalanishda tabiat muhofazasiga e’tibor qaratgan holda boshqarish muammolari muhokama qilindi hamda hududning tabiiy muhitini yaxshilash bo‘yicha takliflar bildirildi.

2023-yil avgust oyida institutimiz olimlari Turkiyaning Egey universitetida bo‘lib o‘tgan “Atrof-muhitni uzluksiz monitoring qilish uchun biologik test modellari” treningida ishtirok etdi.

Unda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan nufuzli olimlar tuproq qatlamining bugungi holati, ekologik va ekotoksikologik tadqiqotlarni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida o‘z fikr va mulohazalari bilan tajriba almashdi.

Ayni chog‘da institutimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasini barqaror rivojlantirish muammolarini tadqiq etish maqsadida mintaqada sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni matematik modellashtirish va prognozlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotir. Aniqroq aytganda, “Ekologik jarayonlarni modellashtirish” laboratoriyasi xodimlari tomonidan Orol dengizining qurigan tubidan tuzlarning tarqalishi, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi muammolarini modellashtirish natijalariga ko‘ra, bu muammolarni yumshatishning amalda yagona chorasi Orol dengizining qurigan tubini va suvni fitomelioratsiya qilish, degan xulosaga kelindi. Ushbu jarayon cho‘l hududlari, shu bilan birga, chorva mollarini ozuqa bilan ta’minlash muammosini ham hal qiladi.

Institutimizning tayanch doktoranti S. Rustamova “Qoraqalpog‘iston sharoitida oqova suvlardagi mikroskopik va yuksak suv o‘simliklarini ko‘paytirish va ularni qishloq xo‘jaligida qo‘llash” mavzuida tijoratlashtirish loyihasi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Loyihada Taxiatosh tumanidagi “Nayman” OFYda suv o‘simliklarini sun’iy ko‘paytirish va chiqindi suvlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

O‘zRFA Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti geologiya laboratoriyasida yaratilgan Nukus shahri yer osti suvlarining va yer osti suvigacha joylashgan zaminlarning sho‘rlanish xaritalari respublikadagi qurilish obyektlarini loyihalashda qo‘llanilayotir. Xaritalar bino va inshootlarni sho‘r tuproqlarda ishonchli va tez loyihalashga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, Nukus shahrining kollektor-drenaj tizimini rekonstruksiyalashda va yangi drenaj tizimlarini loyihalashda qo‘llanilayotgan xaritalar Nukus shahrining ko‘kalamzorlashtirish tizimini yaratishga yordam beradi.

Institutning “Hayvonot ekologiyasi” laboratoriyasi xodimlari tomonidan janubiy Orolbo‘yi botqoqli hududlarida 15 turkum, 37 oilaga mansub qushlarning 138 turi aniqlandi. Shundan 43 turi gidrofil, 58 turi ko‘chib yuruvchi va uyali, 26 turi qishlovchi, 21 turi o‘troq, 33 turi ko‘chib yuruvchi hisoblanadi. Janubiy Orolbo‘yi uchun qayd etilgan 65 turdagi sut emizuvchilardan 41 turi janubiy Ustyurtda, jumladan, kemiruvchilarning 28 turi, yirtqichlarning 12 turi va tuyoqlilarning 3 turi boshqa hududlarda aniqlangan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha, Mejdurechye suv omborida 17 tur baliq, Sharqiy Qorateren ko‘lida 11 tur baliq, Sayko‘lda 10, Achiko‘lda 6 tur baliqlar yashashi aniqlandi.

Shuningdek, “ta’lim — fan — ishlab chiqarish” integratsiyasi doirasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xulosa o‘rnida aytganda, Orol dengizining qurishi va boshqa ekologik inqirozlar insoniyat oldida turgan eng yirik global muammodir. Bu insoniyatdan tabiatga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, tabiatga mehr ko‘rsatishni talab qiladi.

Muhimi, bugungi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi va bevosita rahbarligida Orolbo‘yi hududidagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, hududda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan tizimli ishlar o‘z samarasini bermoqda. Qilinayotgan amaliy ishlar Mo‘ynoq va Orolbo‘yi hududida yashovchi xalqlarning turmush sharoitining yaxshilanayotgani misolida namoyon bo‘lmoqda.

**Svetlana MAMBETULLAYEVA,**
**O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari doktori, professor.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-6788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begnuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 1 2 3 4 5 6